


O'ZBEKISTONDA HAM NEANDERTAL ODAM YASHAGAN

Har yili 4-fevralni antropolog olimlar "Neandertal kuni" sifatida nishonlaydi. Bu sana 1857-yilda Bonn shahrida bo'lib o'tgan Quyi Reyn tabiatshunoslar va shifokorlar jamiyati majlisida ilk bor neandertal odamining qoldiqlari taqdim etilganiga bag'ishlangan. Ushbu antropologik topilma Germaniyaning Neandertal vodiysida topilgan va keyinchalik ilmiy jihatdan neandertal odamining mavjudligini tasdiqlovchi eng muhim dalilga aylangan edi.



Neandertal odam suyaklari O'zbekistonda ham topilgan bo'lib, ulardan eng ahamiyatlisi Teshiktosh topilmasidir. 1938-yilda A.P.Okladnikov tomonidan Teshiktosh g'oridan 8-10 yoshli neandertal bola suyak qoldiqlari topilgan.

Eng qiziq tomoni shundaki, bolaning qoldiqlari tog' echkisi shoxlari bilan o'ralgan holda ko'milgan. Bu esa, tadqiqotchilar fikriga ko'ra, neandertallarning diniy tasavvurlarga ega bo'lganini ko'rsatadi.




Qoldiqlar 70-50 ming yil oldin yashagan neandertalga tegishli bo'lib, suyaklarning antropologik tahlili uning tipik neandertal qiyofasiga ega bo'lganini tasdiqlagan.

Neandertal odam suyaklari topilgan yana bir yodgorlik Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi Angalak g'oridan ham topilgan. Bu yerda R.X. Suleymanov va M. Glantz tomonidan 2002-2005-yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida oyoq kaftining metatarsal suyagi (oyoq suyaklaridan biri) aniqlangan.

Ushbu topilma neandertallar O'rta Osiyo hududida doimiy yoki mavsumiy yashaganligini tasdiqlaydi va ularning migratsiya yo'nalishlari haqida yangi ma'lumot beradi. Ushbu tadqiqotlar o'lkamizning neandertallar yashagan eng sharqiy chakkalaridan biri bo'lganligini yana bir bor tasdiqladi.

O'zbekiston hududi bilan bog'liq uchinchi o'ziga xos topilma Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani hududidagi Obi-Rahmat g'oridagi neandertal va Homo sapienslarning aralashish populyatsiyasidan tug'ilgan gibrird turga tegishli. Obi-Rahmat g'ori neandertal va zamonaviy insonlar o'rtasidagi gibridlashuv haqida eng muhim dalillardan biriga ega. Bu yerda topilgan inson suyaklari neandertallarga ham, Homo sapiens vakillariga ham xos bo'lgan belgilarni namoyon qiladi.



Ushbu topilma neandertallar faqatgina yo'q bo'lib ketmaganini, balki ayrim hududlarda Homo sapiens (zamonaviy odam) bilan genetik aralashuv natijasida yo'qolib ketganini tasdiqlaydi.

Neandertallar Yevropa va Osiyo bo'ylab yuz ming yillar davomida yashagan, lekin 40 ming yil oldin ularning soni keskin kamayib, keyinchalik butunlay yo'q bo'lib ketgan. Ularning yo'qolishiga sabab sifatida iqlim o'zgarishi, Homo sapiens bilan raqobat yoki genetik aralashuv kabi omillar keltiriladi.

O'zbekiston hududidagi Teshiktosh, Angalak va Obi-Rahmat g'orlari ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali neandertallar O'rta Osiyoning qadimgi aholisidan biri bo'lgani va ularning Homo sapiens bilan aloqada bo'lganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda genetik tadqiqotlar neandertallar zamonaviy insonlarning bevosita ajdodlari bo'lmasa-da, ular bizning evolyutsion tariximizning ajralmas qismi ekanini tasdiqlaydi.

O'zR FA Milliy arxeologiya markazi